

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALISHER NAVOIY IJODIDA HAZRATI ALINI TAMSIL QILUVCHI OBRAZLAR

Odiljon AVAZNAZAROV

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Qarshi davlat universiteti doktoranti (DSc)
odiljon.avaznazarov@gmail.com*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803742>

Annotatsiya: Islom olamining ulug' siymolaridan biri xalifa Ali (r.a.) musulmon Sharqi adabiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Uning hikmatlariga o'nlab fors va turk ijodkorlari ruboiy shaklida tarjima-sharhlari yozishgan va bu adabiy an'anaga aylangan. Bundan tashqari, hazrati Ali (r.a.) shaxsi hamda u bilan aloqador voqealar rivoyat, afsona, hikoyatlarga mavzu bo'lgan. Shu tarzda badiiy adabiyotda Ali timsoli shakllangan. Maqolada Navoiy asarlarida bu ulug' siymo ta'sirini yorituvchi asosiy jihatlar tasniflanib, to'rt yo'nalishda tadqiq qilindi. Bu masala mutasakkirning lirik, epik va liro-epik asarlari asosida o'rganildi. Natijada Navoiy ijodida yigirmadan ortiq obrazlar istiora yo'li bilan hazrat Ali karramallohu vajhahuga (Allah uning yuzini ulug' etsin) ishorat qilishi, zulfiqor, duldu, uzuk kabi timsollar esa yuqoridagi obrazlar bilan assotsiativ munosabatga kirishishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, Navoiy asarlari nashrlari bilan bog'liq ba'zi muammolarga aniqlik kiritildi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, hikmat, ruboiy, Ali r.a., tasavvuf, valoyat, qutbiyat kubro, talqin.

Annotation: One of the prominent figures of the Islamic world, Caliph Ali (r.a.), had a profound influence on the literature of the Muslim East. His wisdom inspired dozens of Persian and Turkic authors to compose translations and interpretations in the form of quatrains, which developed into a lasting literary tradition. Furthermore, the personality of Hazrat Ali (r.a.) and the events associated with him became the subject of legends, myths, and stories, shaping his representation in artistic literature. This article classifies and examines the key aspects of the influence of this eminent figure in Navoi's works, analyzed in four main directions. The study is based on the thinker's lyrical, epic, and lyric-epic compositions. As a result, it was identified that over twenty metaphors in Navoi's creative works symbolically refer to Hazrat Ali (may Allah honor his face), while symbols such as Zulfiqar (Ali's sword), Duldu (his steed), and the ring are found to have associative connections with these metaphors. Additionally, certain issues related to the publication of Navoi's works were clarified.

Keywords: artistic image, wisdom, quatrain, Ali (may Allah be pleased with him), Sufism, sainthood, Qutbiyyat-i Kubra, interpretation.

Аннотация: Один из выдающихся деятелей исламского мира, халиф Али (р.а.), оказал значительное влияние на литературу мусульманского Востока. Его мудрые изречения вдохновили десятки персидских и тюркских авторов на создание переводов и комментариев в форме рубаи, что превратилось в литературную традицию. Кроме того, личность хазрата Али (р.а.) и связанные с ним события стали темами легенд, мифов и рассказов, способствуя формированию его образа в художественной литературе. В статье классифицированы и исследованы основные аспекты влияния этой выдающейся личности в произведениях Алишера Навои, проанализированные в четырёх направлениях. Этот вопрос изучен на основе лирических, эпических и лиро-эпических произведений мыслителя. В результате анализа выявлено, что более двадцати образов в творчестве Навои метафорически указывают на хазрата Али (да возвеличит Аллах его лик), а такие символы,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

как Зульфикар (меч Али), Дульдуль (его конь) и кольцо, вступают в ассоциативную связь с упомянутыми образами. Кроме того, были уточнены некоторые вопросы, связанные с изданием произведений Навои.

Ключевые слова: художественный образ, мудрость, рубаи, Али (да будет доволен им Аллах), суфизм, святость, Кутбияти Кубро, интерпретация.

“Xulafo ar-roshidin” (to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar)dan biri – hazrati Ali (r.a.) badiiy adabiyotda ajoyib sarkarda va jasur shaxs sifatida ta’rif qilinadi. Uning musulmon Sharqi adabiyotiga sezilarli ta’siri bor. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida hazrat Ali (r.a.) islomiy falsafa, tasavvuf, adabiyot va axloqiy qadriyatlar ramzi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Mutafakkir asarlarida bu ulug‘ siymo ta’sirini yorituvchi asosiy jihatlarni shunday tasniflash mumkin:

1. *Tasavvuf va valoyatga munosabat;*
2. *Hazrat Ali (r.a.)ning ilmiy va diniy mavqeyi;*
3. *Hikmat va axloqiy qoidalar ta’siri;*
4. *Ali siymosi orqali ideal qahramon yaratish.*

Bizningcha, ana shu jihatlar sinchkovlik bilan tadqiq qilinsa, Navoiy ijodida Ali (k.v.)ga ishora qiluvchi badiiy obrazlar va aloqador ramzlar o‘rtaga chiqadi. Quyida ana shu masalalarga birma-bir to‘xtalamiz.

Ilk jihat. Hazrati Ali (r.a.)ning valoyati hamda avliyolik sifatlari xususida Navoiyning lirik, epik va liro-epik asarlarida ma'lumotlar mavjud. Jumladan, “Nazmu-l-javohir” muqaddimasidagi ruboiyning har bir misrasida xalifalardan biriga ishorat qilinar ekan, Ali (k.v.)ning valoyatiga urg‘u beriladi:

*Avvalg‘ini fazl durrig‘a ummon bil,
Soniysini adl gavharig‘a kon bil,
Solisni hayo gulbunig‘a bo‘ston bil,
Robi‘ni valoyat badanig‘a jon bil [4,31].*

Navoiy ruboiyda hazrati Ali (r.a.)ni valoyat badanining joni, ya’ni markazi sifatida ta’rif qilgach, o‘z fikrini shunday rivojlantiradi: “rub‘i maskun chahor devori aning panjayi valoyati bila barqaror durur” [4,32]. Bizningcha, bu ta’riflar Ali (k.v.)ning *qutbiyati kubro* martabasida ekaniga ishoradir. Qutbiyati kubro tasavvufda hazrat Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarligining botini bo‘lgan *qutbu-l-aqtob* martabasini anglatadi. “Bu maqom faqat Rasulullohning komil vorislariiga berilur. Xotami valoyat faqat xotami nubuvvatning botini uzra bo‘lur” [9,170]. Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi hadis hazrat Ali (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) shubhasiz komil vorislari ekaniga dalolat qiladi:

“Rasululloh (s.a.v.) Tabuk urushida Ali ibn Abu Tolibni o‘z o‘rinlariga qoldirdilar. Bas, u:

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Ey Allohnning Rasuli, meni ayollar va bolalar ichida qoldirasizmi?!” dedi.

“Horun Musoning o‘rnida bo‘lganidek sen mening o‘rnimda bo‘lishga rozi bo‘lmaysanmi?! Faqat mendan keyin nabiy yo‘q, xolos”, – dedilar”.

“Nazmu-l-javohir” muqaddimasidagi boshqa bir ruboiyda ham bu zot valoyat ahlining shohi, yo‘l ko‘rsatuvchi rohbar, karam daryosi, asadulloh – Allohnning sheri sifatida vasf qilinadilar:

*Daryoyi karam kimgaki ogohdurur,
Bildikki, valoyat ahlig ‘a shohdurur,
Gumrohlarg ‘a barandayi rohdurur,
Bu beshada ya ’ni Asadullohdurur [4,40].*

“Lisonu-t-tayr”ning 12-bobida g‘azot janglarining biri hikoyat qilinadi. Unda shoh, ya’ni hazrati Ali (r.a.) dushmanidan o‘q yeganliklari va o‘qning uchi suyakka botib sahabalar uni chiqarishning imkonini topa olishmay payg‘ambarga (a.s.) arz qilganliklari hikoya qilinadi. Hidoyat maxzanining ko‘rsatmalar bilan o‘qni u zot namozga kirganlarida sug‘urib olishadi. Namozda hazrati Ali (r.a.) istig‘roq holatida bo‘lib, bu ishdan bexabar qoladilar:

*Oncha istig ‘roqdindur bahravar,
Kim ul ishtin bo ‘lg ‘usidur bexabar [3,25].*

Namozdan chiqqach, ushbu ishdan xabar topgan Haydari krror (qayta-qayta hamla qiluvchi sher) shukr aylab, bu holni nabiy alayhissalomning ehsoni sifatida baholaydilar. Shu o‘rinda Ali (k.v.)ning valiylikdan ham yuqoriroq martabaga ko‘tarilganliklarini anglash mumkin. Chunki istig‘roq so‘fiylikda Allohdan boshqa hamma narsa bilan aloqani uzib vajd va holga taslim bo‘lishdir va u “valoyat martabasidan keyingi hol” sifatida baholanadi [9,89]. Umuman, ushbu dostonda hazrat Ali (r.a.) haqiqat maqomidagi timsol sifatida gavdalantiriladi.

Ali (r.a.) tasavvufga doir ba’zi masalalar yuzasidan ham fikrlar bildirganlar. Xususan, “Mahbubu-l-qulub”ning “Rizo zikrida” deb nomlangan 9-bobidagi hikoyat “Valoyat daryosining gavhari va hidoyat sipehrining axtari asadullohu-l-g‘olib, amiru-l-mo‘minin Ali ibni Abu Tolib (r.a. va k.v.) rizo maqomi ta’rifida va solikning roziliqqa muttasif bo‘lg‘oni tavsifida varaq yuziga maorifnigor xoma urubtur va bu nav’ daqiq nukta surubdurkim...” – deb boshlanadi [3,496].

Ikkinci jihat. Navoiy asarlarida hazrat Ali (r.a.) islom tarixidagi ilmiy va diniy yetakchi sifatida e’tirof etiladi. Muallif uni buyuk bilim sohibi, islom falsafasi va shar’iy hukmlarning bilimdoni sifatida ko‘rsatadi. Bu Navoiyning tasavvufiy she’riyati va axloqiy mavzudagi asarlarida yaqqol seziladi. Xususan, “Nazmu-l-javohir”dagi mana bu ruboiyda Ali (r.a.) ilmlar daryosi, karam-saxovat burjining quyoshi sifatida zikr qilinadi:

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Daryoyi ulum-u mehri burji karam ul,
Olam tanining joni-yu jononi ham ul,
Sultonni rusul birla qadam barqadam ul,
Farzand-u rafiq-u kuyov-u ibn-amm ul [4,32].*

“Lisonu-t-tayr”dagi mana bu misralar hazrat Ali (r.a.)ning janob payg‘ambar alayhissalomga naqadar yaqin ekanliklarini ko‘rsatadi:

*Ittihodida nubuvvat sham ‘ining
So ‘zi bu kim sen meningsen, men sening.
“Lahmaka lahmi” ham oning shonida,
“Damaka dami” ham istehsonida [3,24].*

Ushbu dostondagi yana bir ta’rif e’tiborli. Ushbu baytda eshik timsoli hazrat Ali (r.a.)dan kinoyadir. Bu ta’rif keltirilgan bayt nashrlarda shu vaqtga qadar yanglish yozib kelinayotgani uchun dostonning ilmiy-tanqidiy matnidagi [7,16] to‘g‘ri shaklini keltiramiz:

علم شهری انبیا غہ انتہا
و صفائی دا آیتیب علیٰ بابہا

Ya’ni:

*Ilm shahri anbiyog ‘a intiho,
Vasfida aytib Aliyun bobaho.*

Bayt To‘pqopi saroy kutubxonasi dagi mashhur qo‘lyozmalardan biri – “Kulliyoti Navoiy”da ham ayni shaklda yozilgan [13,21^b].

Mazkur bayt 20 tomlik Mukammal asarlar to‘plamida ham [5,24] (*Ilm shahri anbiyog ‘a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobaho*), 10 jildli To‘la asarlar to‘plamida ham [3,24] (*Ilm sharhi anbiyog ‘a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobuho*), boshqa nashrlarda ham [8,25] (*Ilm sharhi anbiyog ‘a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobaho*) yanglish yozilgan. Natijada nasriy bayonni tayyorlashda ham, ma’noni anglashda ham chalkashlik yuzaga kelgan. Jumladan, nashrlarda mana bu tarzda yanglish nasriy bayon beriladi: “Ilm sharhi va nabilikda yetukligi uchun uning vasfida Alii bobaho deyishgan” [8,292].

To‘g‘ri nasriy bayonni shunday berish mumkin: “Ilm shahri bo‘lmish so‘nggi nabiy uning vasfida “Aliyun bobaho” deb aytganlar”. Bayt iqtibos san’atiga qurilgan bo‘lib, “Men ilm shahridirman, Ali esa uning eshidigidir” ma’nosidagi hadisga ishora qiladi:

أَنَّا مَدِينَةُ الْعِلْمِ وَعَلَيْ بَابِهَا

Anaa madiynatu-l-ilmi va Aliyyun babuha.

Navoiy ushbu hadisni “Nazmu-l-javohir”ning muqaddimasida ham zikr qilib o‘tadi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Tarixi anbiyo va hukamo”da ham hazrati Ali (r.a.) karomatgo‘y avliyo timsolida zikr qilinadilar: “Yuvsha’ (a.s.) duosi bila Tengri taolo kunni mag‘rib soridin qoytorib, falakda oncha tavaqquf berdikim, qavm dushman ishidin forig‘ bo‘lub, o‘z ibodatlarig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Va gunashni Yuvsha’ (a.s.) din boshqa Tengri taolo Sulaymon (a.s.) bila amiru-l-mo‘minin Ali (k.v.) mo‘jiza va karomatidin mag‘ribdin mashriq sori harakat berdi” [2,571].

“Risolayi tiyr andoxtan” asarida kelgan quyidagi lavhada esa Ali (k.v.) bir vaqtning o‘zida ham Alloh, ham Jabroyil (a.s.), ham Rasululloh (a.s.), ham tirikligidayoq Jannat bashorati berilgan sahobalardan biri Sa‘di Vaqqos (r.a.)ga xizmat qilish baxtiga tuyassar bo‘lganini tushunish mumkin:

“Amiru-l-mo‘minin Ali (k.v.) goho o‘q keltirur erdi, bosh va oyog‘larni yolang qilib, durud aytur erdi. Bir kun Sa‘di Vaqqos o‘q otar erdikim, Jabroyil (a.s.) keldi va hazrati Payg‘ambar (a.s.) Sa‘di Vaqqos birla turub erdilar, Payg‘ambar (a.s.) aydilar: – Ey Sa‘di Vaqqos, mening uchun bir o‘q otqil. Va Jabroil (a.s.) aydi: – Yo Rasululloh, Sa‘di Vaqqosg‘a aytg‘il mening uchun ham bir o‘q otsun. Chun Vaqqos bu ikki o‘jni otmoqdin so‘ng Payg‘ambar (a.s.) aydi: Bir o‘q Xudoyi taoloning nomi uchun otqil. Sa‘di Vaqqos yana bir o‘q otti. Andin so‘ng sahabalar borib, nishonagohdin o‘qlarni kelturdilar. Ammo ul o‘qkim, Xudoyi subhonahu taolo oti uchun otib erdilar, topmadilar. Jabroyil (a.s.) kelib aydi: – yo Muhammad, Xudoyi taolo aydikim, ul o‘jni topmasunlar, aning uchunkim, ul behishtda Sa‘di Vaqqosqa yer olib anda turdi” [6,295].

“Hayratu-l-abror”ning 10-bobida Alining (r.a.) dindagi xizmatlaridan yana biri tilga olinadi:

Na'lini gar toji sharaf qildi Arsh,

Qildi Ali na 'lig'a egnini farsh [1,35].

Bu baytning mohiyati “Lisonu-t-tayr”ning 11-bobida yanada ochiqlanib, Alining (r.a.) egni Makka toqidan Hubal buti tushirilayotganda hazrat Payg‘ambarning (s.a.v.) oyog‘iga zina bo‘lgani ta’kidlanadi:

Makka toqidin tushurmakta Hubal,

Egni hazratning oyog‘ig'a muhal [3,24].

“Majolisu-n-nafois”da Mavlono Muin Voiz bilan bog‘liq qiziq voqealari keltiriladi: “Bir qatla hazrat amiru-l-mo‘minin Alining iymoni taqlidiy ekandur deganga, ul hazratning ruhidin g‘arib siyosat va shikanjalar ko‘rdi. Hamonoki tavba qildikim, qutuldi” [3,378].

Uchinchi jihat. Navoiy “Mezonu-l-avzon”da Ali (k.v.)ning she’rlari ko‘p, balki devoni bor ekanini zikr qiladi [4,534]. Husayn Boyqaro “Risola”siga javoban 1485-yilda yozilgan hamda muqaddima, 268 ruboiy va bir xotima ruboiydan iborat

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Nazmu-l-javohir” asari esa hazrati Alining “Nasru-l-laoliy” (Nasriy gavharlar) tarkibidagi hikmatlari she’riy tarjimasidan iborat. Asar muqaddimasida hazrati Ali (r.a.) hikmatlari haqida “Har nasriy marvaridkim, fikrat g‘avvosi soflik qandilini boshiga, tartib rishtasini qo‘liga tutub, hamd-u sano ummonidan hosil qilgay”, – deyiladi.

Navoiy “Nasru-l-laoliy”dagi hikmatlarni hazrati Ali (r.a.)ning valoyat daryosidan chiqqan qiymatbaho la’llar va karomati ummonidan hosil bo‘lgan qimmatbaho injular sifatida ta’riflaydi. Asar muqaddimasining boshqa bir o‘rnida g‘avvos timsoli hazrat Ali (r.a.)ga ishora qiladi: “Ul valoyat daryosining g‘avvosi har laolikim, durfishon xomasidin nasr qilibdurur va ul hidoyat lujjasining shinosi har durrekim gavharrez iligidin sochibdurur...” [4,40].

“Nazmu-l-javohir” muqaddimasida Navoiy so‘zni ta’rif qilib, uni uch martabada tasnif qiladi. Ikkinchisi martabaga valiylarning so‘zini qo‘yar ekan shunday deydi: “Mundin so‘ngra hidoyat gulistonining bulbuli hushilhonni va valoyat shakaristonining to‘tiyi shirinzaboni, karomat sarpanjasini bila balog‘at Xaybari eshikin ochqon va karam zo‘rdasti bila karomat bahri laolisini zamona ahli boshig‘a sochqon... mashoyix va avliyo so‘zi bo‘la olur” [4,33]. Bu ta’rifda bulbul, to‘ti kabi timsollar hazrat Ali (r.a.)ga ishorat qiladi.

“Mahbubu-l-qulub”ning “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida” deb nomlangan 16-faslida muallif hazrat Ali (r.a.)ni shoirlar qavmining peshvosi sifatida zikr qiladi: “bu aziz qavmnинг peshvo va muqtadosi va bu sharif xaylning sardaftari va sarxayli valoyat bahrining gavhari va karomat avjining munir axtari amiru-l-mo‘minin Ali (r.a. va k.v.)durkim, nazm devonlari mavjuddur va anda asror va nukta noma’dud” [3,464].

“Badoye’u-l-vasat”ning beshinchi hamda qirq yettinchi qit’alarida ham amiru-l-mo‘minining hikmatlari she’riy yo‘l bilan tarjima-sharh qilinadi.

To‘rtinchi jihat. Navoiyning liro-epik asarlarida hazrat Ali (r.a.) timsoli ideal qahramon sifatida shakllantiriladi. Bu siymo jasorat, hikmat, rahm-shafqat va ma’naviy kuchni o‘zida mujassam qiladi. Xususan, “Lisonu-t-tayr”ning XI-XII boblari hazrati Ali (r.a.)ga bag‘ishlanadi. XI bobda bu zot *amiru-l-mo‘minin, ilm daryosi, valoyat gavhari, olam ahlida ajoyib ko‘rinishli, nabiylar sardoriga farzand, odamlar ichra tengsiz, din xizmatkori, payg‘ambar (a.s.) uchun jon fido qilishga tayyor, zoti olam vasflari bilan ziynatlangan, taqvo ahliga imomu-l-muttaqin, ilm shahrining eshigi, taqdir o‘rmonining sherlarni titroqqa soluvchi haybatli sheri, kofirlarga munosib javob beruvchi, pahlavonlik na’rasini uruvchi, nabiy farzandiga payvand* kabi sifatlar bilan vasf qilinadi. Bu epitetlar talmeh, iqtibos, tashbeh badiiy

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

san'atlari bilan uyg'unlikda kelib, hazrati Ali (r.a.) timsolini kitobxon ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi.

"Farhod va Shirin"ning 10-bobida Husayn Boyqaro g'azot maydonidagi qahramonliklari uchun Haydari karrorga tashbeh qilinadi:

*G'azo maydoni ichra Haydar oyin,
Rivoji shar' aro payg'ambar oyin [1,346].*

Haydar sher ma'nosini anglatib, Payg'ambar alayhissalomning kuyovi Alining (r.a.) laqabidir. Badiiy adabiyotda sher timsolining hazrat Ali (r.a.)ga ishora qilishi quyidagi rivoyat bilan bog'liq: "Naql qilinishicha, payg'ambar Me'rojga ko'tarilib, Olloh dargohiga yaqinlashganlarida bir bahaybat sher yo'llarini to'sadi. Sarvari koinot shunda qo'llaridagi uzukni olib sherning og'ziga irg'itganlari hamon u yo'ldan chetlashadi. Me'rojdan qaytib Hazrati Ali bilan ko'rishgach, qarasalarki, o'sha uzuk uning barmog'ida turibdi. Bundan hayratlangan rasululloh: "Ey Ali, Ollohning sheri sensan...", deydilar. Shu-shu Ali Ollohning sheri ekaniga ko'pchilik hech shubhalanmaydi. Chunki u hayotda ham sheryurakligini qayta-qayta namoyish etadi" [12,4].

Hazrat Ali (r.a.)ga aloqador ramzlar ham Navoiy asarlarida ko'p uchraydi va bu timsollar Ali (r.a.) siymosidagi ideal qahramonga ishora qiladi. Quyida shulardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz:

Alining (k.v.) uzugi. "Nasoyimu-l-muhabbat"da Imom Shofe'iy (r.a.) haqidagi mana bu lavhada hazrati Ali (r.a.)ning uzugi valiyarning ilmi ramzi sifatida qo'llaniladi: "Shofe'iy debdurki, Rasul (s.a.v.) voqeа (ya'ni, tush)da muborak og'zi suyini mening og'zimg'a soldi, andoqli, og'zimg'a va ernimg'a va tilimg'a yetishti. Va dedi: borki Tengri sanga barakot bersun va ham ul soat amiru-l-mo'minin Ali (k.v.) uzugin chiqorib, mening barmog'img'a soldi, to nabiy-u valiyarning ilmi manga siroyat qildi" [4,106].

Zulfiqor. Zulfiqor – hazrat Ali (r.a.)ning ikki damli, g'oyat keskir afsonaviy qilichi. Rivoyatlarga ko'ra, hazrat Muhammad (a.s.) jangda o'lja olgan bu afsonaviy qilich keyinchalik xalifalarga o'tgan. Zulfiqor sehrli kuchga ega bo'lgan quroq sifatida tasvirlanadi.

"Nasoyimu-l-muhabbat"da keltirilgan Orif Ayyorning (r.t.) ushbu so'zlaridan zulfiqorning kuch-qudrat timsoli ekanini anglash mumkin: "Derlarki Ali Murtazo (r.a.) Xaybar eshikin qo'ng'aribdur. Agar Tengrining yorlig'i va Mustafo (s.a.v.)ning mushohadasi va Zulfiqor menda bo'lsa, Qof tog'in qo'ng'armasam, manga tovon bo'lg'ay. Shayxu-l-islom debdurki, bu – Ali (r.a.)g'a nuqs emasdurki, tanuqluqdur, ul mazkur bo'lg'ay uch nimaga [4,253].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Farhod va Shirin” dostonining 22-bobida Farhod ajdaho g‘ori ichida topgan xazinasidagi bir qilichni zulfiqorga o‘xshatadi:

Bular ustida tig‘i obdori,

Kelib burronlig‘ ichra zulfiqori [1,436].

Farhod zulfiqorni beliga bog‘lab keyingi bobda Ahraman devini shu qilich yordamida halok qiladi. Dev tasavvuf adabiyotida nafsi ammora, sarkashlik va takabburlik, zulm va sitam, xudobexabarlik ma’nolarida keladi [9,49]. Demak, bu o‘rinda zulfiqor nafs devi va shaytoni lainni mag‘lub qiluvchi kuch-qudrat, shijoat, shiddat ramzidir.

“G‘aroyibu-s-sig‘ar”ning 276-g‘azalida kelgan mana bu baytda valiylarning nafsni halok qiluvchi nutqi Ali (k.v.)ning kufrga qarshi ko‘tarilgan keskir zulfiqoriga tashbeh qilinadi:

Haloki nafs valiy nutqi bilki, rishtayi kufr

Kesar ishiga Ali zulfiqoridur miqroz.

Zulfiqor ba’zan qalamga ishora qiladi. Jumladan, “Nazmu-l-javohir” muqaddimasida Ali (k.v.)ning qalami ikki tilda hikmat so‘zlagani uchun ikki tig‘li zulfiqorga, tezkorlikda esa uchqur duldulga qiyoslanadi: “... ikki zabonaliq kilki zulfiqoridin nishona va ul kilki zabonalari sur’atda duldulidek ravona...” [4,33].

Duldul. Hazrat Ali (r.a.)ning oti bo‘lib, kuch va jasorat, so‘z va fikr quvvatining uchqurligi ramzi sifatida keladi. “Lisonu-t-tayr”ning 11-bobida duldulning yurish tezligi chaqmoqqa tashbeh qilinadi:

Duldulining po ‘yasi andoqli barq,

Zulfiqoridin aduv qon ichra g‘arq [3,24].

Xulosa qilib aytganda, hazrat Ali (r.a.) siymosi ta’sirini yorituvchi asosiy jihatlar tadqiq qilinganda Navoiy asarlarida *daryo, g‘avvos, gavhar, yulduz, quyosh, eshik, qal‘a devori, sher, shoh, amir, do‘st, shoir, hakim, jon, jonon, bulbul, to‘ti, soqiy, Haq yo‘lchisi, pir, valiy, qutb* kabi yigirmadan ortiq obrazlar istiora yo‘li bilan hazrati Ali (k.v.)ga ishorat qilishi mumkin. *Zulfiqor, duldul, uzuk* kabi timsollar esa yuqoridagi obrazlar bilan assotsiativ munosabatga kirishadi va badiiy asarda hazrat Ali (r.a.) portretini ulug‘vor qiyofada aks ettirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература/ References):

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 812 b.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. VIII jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 704 b.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. IX jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 768 b.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSETINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. X jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 684 b.
5. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. XII том. – Тошкент: “Фан”, 1996. – 357 б.
6. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. XVI том. – Тошкент: “Фан”, 2000. – 329 б.
7. Alisher Navoiy. Lisonu-t-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1965. – 230 b.
 - i. عليشیر نوایی. لسان الطیر. علمی تنقیدی متن. «فن» نشریاتی تاشکینت ۱۹۶۵
8. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr: (Nasriy bayoni bilan); Mas’ul muharrir, so‘zboshi muallifi, izoh va lug‘atlar tuzuvchisi Vahob Rahmonov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. – 472 b.
9. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so‘zligi. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2024. – 288 b.
10. Avaznazarov O. Alisher Navoiy dostonlarida yo‘l obrazi geografiyasi / O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari. – 2024, № 3. – 76–82 b.
11. Avaznazarov O. Alisher Navoiy dostonlarida yo‘l obrazi / Til va adabiyot.uz. – 2024, № 20. – 29–31 b.
12. Иброҳим Ҳаққул. Тахминда чалғиши бўлур // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”. – 2009, № 43. – 6 б.
13. Lisonu-t-tayr. Kulliyoti Navoiy. Qo‘lyozma. To‘pqopi saroy kutubxonasi. Revan fondi, Inv.№.808. – B.21^b.